

**AUTIZM KELIB CHIQISH SABABLARI VA DAVOLASH YO'LLARI**

*Namangan davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Valnazarova Shaxrizoda Otaboy qizi**

*Ilmiy raxbar: Namangan Davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti pedagogika-psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

**Voxobova Muniraxon Sadirdinova**

*muniravaxobova408@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada autizmning kelib chiqish sabablari, autizm turlari, autizm bilan kasallangan bolalarni ta'lim tarbiya olishi va davolash usullari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar :** Autizm , atipik autizm , Retta sindromi F.80.0, F.84.1, shezefroniya.

**Abstract:** Three articles describe the causes of autism, types of autism, education and treatment of children with autism.

**Key words:** Autism, atypical autism, Rett's syndrome F.80.0, F.84.1, schizophrenia.

**Аннотация:** В трёх статьях описаны причины аутизма, виды аутизма, обучение и лечение детей с аутизмом.

**Ключевые слова:** Аутизм, атипичный аутизм, синдром Ретта F.80.0, F.84.1, шизофрения.

### **Kirish**

Autizm nima ? uning sabablari va kòpchilikni qiziqtiradigan savol autizmning davolasa bòladimi? Shu va boshqa savollarga biz bilan birgalikda javob topasiz degan umiddaman.

Hamma autizmni kasallik deb òylaydi. Autizm kasallik emas balki psixik rivojlanishning buzulishidir. Bu degani ruhiy kasal, xalq tilida aqli zaif degani emas ularning miyasi bazi turlarida boshqa odamlarga nisbatan yaxshi rivojlangan bòladi.

Faqat autizmida harakat va nutqning buzilishi bilan tavsifladadi va ijtimoiy hayotga taqdirning buzilishi bilan namoyon bòladi.

Bu miya rivojlanishidagi kamchiliklar orqali yuzaga keladigan holat bòlib nutqida va harakatlaridagi buzilishlar sabab atrofdagilar bilan muloqatda qiynalishadi.

Autizmga duchor bòlgan bolalar faqat bir xil narsalarni yaxshi kòrishadi, masalan faqat bitta multafilimni kòrishadi , bitta rangni yaxshi kòrishadi va boshqa rangdan qòrqishadi yoki yomon kòrishi mumkin bòladi. Uyida qanday maxsulot kòp bòlsa òshalarni doim bir xil tartibda qòyib chiqishadi .

Autizm tushunchasi alohida nuqson sifatida 1942-yilda L.Kanner. tomonidan tasvirlangan. 1943-yilda katta yoshdagi bolalarda shunga oʻxshash bu ishni G.Aspergan ,1947-yilda Mnuxin tomonidan tasvirlangan.

Autizmda intellektual rivojlaninish darajasi juda xilma xil bòladi. Chuqur aqliy zaiflikdan tortib, ma' lum soxalarda iqtidorlilikgacha. Autizm sindromli bolalarda nutqi yòq, maxoratining rivojlanishi , diqqat, hissiyot, idrok va psixikasining boshqa soxalarida oʻgish kuzatiladi.[1]

Autizm bolalarning 80% dan ortiğida afsuskiy nogironlardir.

Buzulishlar spektirining xilma - xiligi va ularning darajasi har hilligi pedogoglar uchun kareksiyalash bòlishini bildiradi.Shu oʻrinda bir savol tuğuladi. Autizmning kelib chiqish sabablari qanaqa .

Shuncha yillik oʻrganishlar natijasida shular malum bòldiki , homiladorlik paytida ona organizimida malum bir oqsillarning yetishmasligi homiladorlik paytidagi streslar va organizmda ikki xil oʻgir metallarning , qòrğoshin va simobning kòpayib ketishi , Anemiya hamda qon bosimining, oshishi buyrakda qon bosimining oshishi bularning hammasi autizmning kelib chiqishiga sabab bòladi. Hozirgi kundagi global muomolardan biri bòlgan ekologiyaning buzilishi ham autizmning kelib chiqishiga sabab bòlyapdi. Shuning uchun ham hozirgi kunda autizm bilan oʻgriğan bolalar soni kòpayib ketyabdi. Ilgari tortinchoq, uyatchang, introvert va shizofreniyaga moyil bolalar " ğayritabiy bolalar" deb atalar edi hozitgi kunga kelib bunday bolalar autistik bolalar (autizm ) deyilyapdi.

Autizm kasalligi yoshga qarab quyidagicha guruhlarga bòlinadi. 1. Erta bolalik autizimi 2yoshgacha.

2. Bolalik autizimi 2-11yoshgacha.

3. Osmirlik autizmi 11-18yoshlargacha .

Autizm sindromini bazi olimlar aniq sababini kòrsata olishmaganliklari sababli tuğma yani irsiyatga boğliq degan fikirni ilgari surishgan.

Autizm belgilari bolalarda yaqol kòzga tashlanib turadi.

Lekin faqat pedogog bolaga bu tashxisni qòymasligi kerak, logoped pedogoglar , nevroptolog va psixiyotrlar oʻz xulosasini berib borishlari kerak bòladi.

Bolaga tashxisni birgalikda qòyishlari kerak bòladi.Autistik bolalarning nutqidagi kamchiliklarni : nutqining kechikib chiqishi, juda kam gapirishi , nutqdan oʻz ehtiyojlarini qondirishda kam foydalanishi . Logopedlarning ham bolaning ha juda uzoq vaqtini oladi lekin uddalas bòladigan holat hisoblanadi.

Autizmda tez uchrab turadigan turlaridan biri "exololiya" hisoblanib bunda bola faqat eshitgan gaplarini takrorlaydi bu tòti qushlik ham deyiladi. Shunday bòlsa ham juda kam takrorlaydi. Oʻzi mustaqil gap tuzib extiyojlarini ayta olmaydi.

Bolalarning xulq atvori buziladi, oʻyin faoliyatijuda sust bòladi. Bola oʻzi bilan oʻzi oʻynashi yoki hech kim bn oʻynamasdan bir chekkada soatlab oʻtirishi mumkin.

Ba'zi autistik bolalarda gapitmay òtirishi indamasligi mutizm holati ham kuzatiladi. Autizmni butkil davolashning iloji yòq lekin kareksiyalashning iloji bor. Kareksiyalash degani davolashdan nima farqi bor deganlar uchun : kareksiyalash bu yumshatish degani sindromni butkul yòqotishning iloji yòq lekin nutqidagi va psixikasidagi o'g'ishlarni bir muncha yumshatishning iloji bor.[3]

Bola bilan tuzatish ishlari olib borilishida oldin rasimli mashqlar olib boriladi keyin diqqatni, idrokni rivojlantiruvchi metodlar olib boriladi. Autizmning belgilari juda hilma xil bòlganligi sababli ularni turlarga bòlish va tuzatish qiyin kechadi. Ba'zi turlarida aqliy rivojlanishi meyyordan past bòlsa bazilarida intellekti juda uaxshi rivojlangan bòladi, yodlash va matematika sohalarida oldinda bòlishadi. Ular boshqalarga qaraganda ancha kryotiv fikirlashadi. Autizm kòp hollarda o'g'il bolalarda kamdan kam qiz bolalarda uchraydi.

Erta bolalikdagi autistiklarda bir qancha belgilar bòladi.

Masalan: ijtimoiy munosabatning yetarli darajada rivojlan maganligi, Òzaro kommunikatsiyaning yeratli emasligi va Stereotipik xulq atvor shakllarining mavjudligi.

Autistiklar orasida qat'iy autizm (Kanner, Aspergen, Rett, atipik sindromlar) shuningdek autistik xati xarakterlar mavjud.

Autizmning ba'zi turalri haqida ham malumotga ega bòlishingiz kerak.

KANNER sindromi bolalar autizmi bu turdagi autistiklar hayotining boshidan yani erta bolalikdan atrifdagilar bilan muloqat òrnatishlari mumkin emas , òrnata olishmaydi, tashqi muxitdan batamom uzilgan bòladi. Tashqi muxitdan biron narsa ularga tasi qilsa ham sezishmaydi faqat qattiq o'g'riq bòlsa gina sezishadi. Nutqidan yetarlicha òz exyiyojlari uchun foydalanish maydi. Kòz orqali aloqa qilishmaydi. Eshitgan sòzlarini shunchaki takrorlashadi. [2]

**ATIPIK AUTIZM** buzilishlari Kanner sindromiga òxshaydi lekin kerakli belgilarning bitta yarimtasining yòqligi bilan farq qiladi . Bu turdagi sindromda ham ijtimoiy aloqaning yetarli darajada buzulganligi , cheklangan, takrorlanadigan hatti harakatlar . Doim bir xil narsalarni takrorlashi, anamol yoki buzulgan rivojlanishning belgilari uch yoshdan krhin namoyon bòlishi bilan harakterlanadi.

**ASPERGEN SINDROMI** U birinchi bor 1944-yilda Vena psixiyotiri G.Asperger tomonidan tasniflangan shuning uchun ham uning nomi bilan sharaflab aytiladi. Bu sindrom Kanner sindromida bòlgani kabi tengdoshlaridan batamom ajralgan bòladi muloqatda va boshqa vaziyatlarda diqqati faol va pasiv , diqqati beqaror ammo individuol autistik maqsadlariga katta etibor qaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ròyxati:

1. Mòminova L.R.M 99 Maxsus psixologiya: òquv qòllanma / L.R.Mòminova, Sh.M.Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, M.U.Xamidova, D.B.Yakubjanova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidov

- a; *Özbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi*. —Toshkent: *Özbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti*, 2014. - 272 b.
2. Dilafruz Dadamirzaevna Oribboeva. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. 314-318 2022/11/12
  3. Vokhobova Munirakhan Sadirdinovna. “Open Access Repository” Академии : CORRECTIVE PEDOGOGICAL WORK CARRIED OUT IN STUTTERING CHILDREN. 372-375
  4. *Özbekiston Respublikasining "Ta'lim tôğrisida"gi qonuni*. 2020-yil 23-sentyabr. *ÖRQ-637-son*.
  5. Ayupova M. Y. Logopediya:darslik/ M.Y. Ayupova; *Özbekiston Respublikasi Oliya va o'rta maxsus ta'lim vazirligi*. — T.: *Özbekiston faylasuflari milliy nashriyoti*, 2007.— 560b
  6. Munira, V., & Shoxistaxon, T. (2024). BOLALAR NUTQINING RIVOJLANISHIDA ATROF MUHIT VA OILANING AHAMIYATI. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 15(1), 33-35.
  7. BOLALAR NUTQINING RIVOJLANISHIDA ATROF MUHIT VA OILANING AHAMIYATIV Munira, T Shoxistaxon - Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 2024
  8. BOLALARDA YUVINEL REVMATOID ARTRIT KASALLIGINING KELIB CHIQISHI HAMDA UNING OLDINI OLIISH CHORALARI
  9. V Munira, MX Sodiqjonovna - Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 2024  
Цитируется: 2 Похожие статьи
  10. WAYS AND METHODS OF SPEECH FORMATION OF CHILDREN WITH ALALIYA SPEECH DEFECTS
  11. BOLALARDA YUVINEL REVMATOID ARTRIT KASALLIGINING KELIB CHIQISHI HAMDA UNING OLDINI OLIISH CHORALARI
  12. V. Munira, MX Sodiqjonovna - Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 2024  
Цитируется: 2 Похожие